



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 6 Issue 03 | pp. 204-212 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

HUDUDLAR KESIMIDA KICHIK BIZNES KORXONALARINING INNOVATSION RIVOJLANISH IMKONIYATLARI



Salimov Baxtiyor Tadjievich, i.f.d., prof.

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Baxtiyorov Mirabbos Baxodirovich

“Prezident iqtidorli farzandlari” tashabbusini qo‘llab

quvvatlash bo‘yicha Milliy dastur doirasida

ta’lim olayotgan o‘quvchi

Annotatsiya: Maqolada hududlar kesimida innovatsion mahsulot ishlab chiqaruvchi kichik biznes korxonalarining hududlar kesimida innovatsion maxsulot ishlab chiqarish salohiyati, ular faoliyat yuritayotgan hududlarning ham innovatsion salohiyatiga bog‘liqligi, hududlar kesimida ilmiy-tadqiqot ishlarini va ishlanmalarni bajaruvchi har bir tashkilotga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha innovatsion mahsulot miqdori indeksi, innovatsion mahsulot ishlab chiqaruvchi KBK ning innovatsion maxsulot ishlab chiqarish unumdorligi indeksi va innovatsion infratuzilma elementlari miqdorining integral indekslarini aniqlash va tahlil qilish, integral indeksiga ko‘ra hududlar kesimida KBK da innovatsion faoliyatni rivojlantirish imkoniyatlari o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: kichik biznes, hudud, innovatsion maxsulot, ilmiy-tadqiqot ishlar va ishlanmalar, indeks, integral indeks, innovatsion faoliyat, hududning innovatsion salohiyati, infratuzilma, texnopark.

Аннотация: В статье рассматривается потенциал малых предприятий, производящих инновационную продукцию в регионах, их зависимость от инновационного потенциала регионов, в которых они работают, индекс среднего объема инновационной продукции на одно предприятие, осуществляющее научно-исследовательские и опытно-конструкторские работы в регионах, индекс производительности инновационной продукции в производстве инновационной продукции малых и средних предприятий, производящих инновационную продукцию, и интегральные индексы объема элементов инновационной инфраструктуры, а также возможности развития инновационной деятельности малых и средних предприятий в регионах по интегральному индексу.

Ключевые слова: малый бизнес, регион, инновационная продукция, научно-исследовательские и опытно-конструкторские работы, индекс, интегральный индекс, инновационная деятельность, инновационный потенциал региона, инфраструктура, технопарк.

Abstract: The article examines the potential of small enterprises producing innovative products in the regions, their dependence on the innovative potential of the regions in which they operate, the index of the average volume of innovative products per enterprise carrying out research and development work in the regions, the index of productivity of innovative products in the production of innovative products of small and medium-sized enterprises producing innovative

products, and integral indices of the volume of elements of the innovative infrastructure, as well as the possibilities for the development of innovative activities of small and medium-sized enterprises in the regions according to the integral index.

Key words: *Small business, medium business, region, innovative product, research and development, innovation, index, integrated index, innovative activity, level of innovative potential of the region, texnopark.*

1. Kirish

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda kichik biznes korxonalari (KBK) muhim ahamiyat kasb etishi butun jahonda tan olingan, ayniqsa rivojlangan davlatlar iqtisodiyotida KBKi o'z o'ringa ega muhim sektor hisoblanadi. KBK mahalliy xomashyo resurslarini ishlab chiqarishga jalb etadi, ish o'rinlari yaratadi, aholining katta qismini daromad bilan ta'minlaydi, butun mamlakat va undagi hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga katta hissa qo'shadi. KBKi tarmoq ichida raqobatni kuchaytiradi, raqobatbardosh bo'lmagan korxonalarini bozordan siqib chiqaradi va istemolchilarni sifatli mahsulot bilan ta'minlaydi. KBKlari aniq bir hududda joylashgan, shuning uchun KBKning innovatsion salohiyatini hududda mavjud bo'lgan innovatsion infratuzilma elementlari oshiradi: biznes inkubator, texnoparklar, oliy ta'lim tashkilotlari, ilmiy-tadqiqot institutlari va hudud davlat hokimiyati tomonidan KBKni qo'llab-quvatlash bo'yicha chora-tadbirlar. Bularning hammasi KBKning hududiy innovatsion salohiyatini bildiradi deb qarash mumkin. KBKning innovatsion mahsulot ishlab chiqarish salohiyati-kichik biznes korxonasi o'zining texnologik, kadrlar va boshqa resurslari salohiyatidan samarali foydalanib, ishlab chiqarishi mumkin bo'lgan innovatsion mahsulot miqdori deb qaraydigan bo'lsak, yil davomida ishlab chiqargan innovatsion mahsuloti miqdori esa, amalda foydalanilgan innovatsion salohiyat deb qarash mumkin. Bu yerda korxonaning innovatsion mahsulot ishlab chiqarishga mo'ljallangan ilg'or texnologiyasi, malakali kadrlari, innovatsion menejmenti va boshqa resurslari uning innovatsion salohiyatini bildiradi.

O'zbekistonda 2024 yil 1 yanvar holatiga ko'ra 417080 birlik kichik biznes sub'ektlari faoliyat yuritgan, shundan 86030 tasi yangi tashkil topgan va 2023 yil davomida 192550 tasi o'z faoliyatini to'xtatgan [6].

2. Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot davomida indeks usuli yordamida hududlarning innovatsion mahsulot ishlab chiqarish salohiyatini ifodalovchi indekslar va integral indekslar orqali aniqlandi. Tahlil, sintez, taqqoslama usullaridan va integral indeks ko'rsatgichidan foydalanib hududlar kesimida KBKlarini innovatsion rivojlantirish yo'nalishlarini belgilash bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

3. Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Mahalliy olimlardan U.V.Gafurovning ishida kichik biznes korxonalarining innovatsiyalarni amaliyotga joriy qilish faolligini oshirishni uchun maxsus jamg'armalar tuzish orqali ularni rag'batlantirish masalalari o'rganilgan. muhim ahamiyatga ega. Mahalliy olimlardan U.V.Gafurovning ishida [1]. Samarali innovatsion loyihalarni tanlab amaliyotga joriy qilish kichik biznes korxonalarining innovatsion faoliyati samaradorligini oshirish masalalari Sh.I.Otajonov ishida o'rganilgan[4]. Kichik biznes korxonalarining

innovatsion faoliyatini baholashda diskontirlangan usullardan (sof keltirilgan ko'rsatgichlardan) foydalanish, innovatsion loyihalarni samaradorlik darajasini baholash masalalari V.E.Barkovskaya ishida qaralgan[2].

Korxonalarining innovatsion salohiyatini korxonalarining innovatsion faoliyat natijalariga va innovatsion faoliyatga ta'sir qiluvchi omillardan foydalanish orqali baholash masalalari Rossiya Federatsiyasi sanoati misolida A.I.Zokirov tomonidan o'rganilgan[3]. Lekin, bu ishlarda KBKini hududlarning innovatsion salohiyatini ifodalovchi integral idekslardan foydalanib, KBKini innovatsion rivojlantirish imkoniyatlari yetarli darajada qaralmagan. Shu sababli mazkur maqolani dolzarb deb qarash mumkin.

4. Tahlil va natijalar

O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, Respublikada 2022 yilda ilmiy-tadqiqot ishlarini va ishlanmalarni bajaruvchi tashkilotlar soni 262 tani tashkil etgan, innovatsion tovarlar, ishlar va xizmatlarni o'z kuchi bilan ishlab chiqaruvchi korxona va tashkilotlar soni 4955 ta, o'z kuchi bilan ishlab chiqarilgan innovatsion tovarlar, ishlar va xizmatlar hajmi 40451615,7 mln. so'mga teng bo'lgan. Innovatsion tovarlar, ishlar va xizmatlar hajmining YaIM dagi ulushi 2022 yilda 4,5 % ni tashkil etgan, 2-jalval. Ilmiy-tadqiqot ishlarni va ishlanmalarni bajaruvchi tashkilotlar soni va ularda yaratilayotgan innovatsion ishlanmalar soni innovatsion maxsulot ishlab chiqarishga to'g'ridan to'g'ri tasir qiladi.

Innovatsion ishlanmalar ishlab chiqarishga joriy qilinishi va tijoratlanishi mumkin bo'ladigan bo'lsa ular innovatsion mahsulotga aylanadi. Shundan kelib chiqib, hududlar kesimida ilmiy-tadqiqot ishlarini va ishlanmalarni bajaruvchi tashkilotga to'g'ri keladigan o'rtacha innovatsion mahsulot miqdorini tahlil qilish ham maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz.

Hududlar kesimida innovatsion tovarlar, ishlar va xizmatlar hajmini, ilmiy-tadqiqot ishlarini va ishlanmalarni bajaruvchi tashkilotlar soniga bo'lsak, tashkilotlarning ilmiy-tadqiqot ishlari va ishlanmalarining innovatsion maxsulot ishlab chiqarish bo'yicha unumdorligini hududlar kesimida ko'rish mumkin, (1-jadvalning 5-ustunini 3-ustunga bo'lgandagi natija, 2-jadvalning 2-ustunida keltirilgan).

Respubika bo'yicha har bir ilmiy-tadqiqot ishlarini, ishlanmalarni bajaruvchi tashkilotga to'g'ri keladigan innovatsion maxsulot (tashkilotlarning o'rtacha unumdorligi) 154395,5 mln.so'mga teng (1-jadval). Ilmiy-tadqiqot ishlarni va ishlanmalarni bajaruvchi tashkilotlar soni 5ta bo'lishiga qaramay, tashkilotlarning eng yuqori unumdorligi Andijon (2091823,7 mln.so'm) hududiga to'g'ri keladi, demak bu tashkilotlarda yaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlar va ishlanmalarining xam unumdorligini yuqori deb aytish mumkin.

Keyingi o'rinlarda Navoiy (353927,2 mln.so'm), Qashqadaryo (337592,9 mln.so'm) va Samarqand (157916,7 mln.so'm) hududlari. Yuqoridagi hududlar tashkilotlarining unumdorligi o'rtacha respublika unumdorligidan yuqori, qolgan hududlarniki past. O'rtacha unumdorlik ko'rsatgichini Toshkent (104225,8 mln.so'm), Buxoro (111277,9 mln. so'm), Sirdaryo (101392,7 mln. so'm) hududlariga to'g'ri keladi. Eng past unumdorlikni Farg'ona (98779,4 mln so'm), Xorazm (75572,2 mln.so'm), Namangan (67007,3 mln.so'm), Surxondaryo (51772,6 mln.so'm), Jizzax (40612,2 mln.so'm) hududlarida va Qoraqalpog'iston Respublikasida (1556,8 mln.so'm) kuzatish mumkin.

1-jadval

Hududlar kesimida ilmiy-tadqiqot ishlarini va ishlanmalarni bajaruvchi, o'z kuchi bilan innovatsion mahsulot ishlab chiqaruvchi korxona va tashkilotlar soni va o'z kuchi bilan ishlab chiqarilgan innovatsion mahsulotlar hajmi (2022 yilda)¹

№	Hududlar	Ilmiy-tadqiqot ishlarini va ishlanmalarni bajaruvchi tashkilotlar soni (birlikda)	Innovatsion tovarlar, ishlar va xizmatlarni o'z kuchi bilan ishlab chiqaruvchi korxona va tashkilotlar soni (birlikda)	O'z kuchi bilan ishlab chiqarilgan innovatsion tovarlar, ishlar va xizmatlar hajmi (mln. so'm)	O'z kuchi bilan ishlab chiqarilgan innovatsion tovarlar, ishlar va xizmatlar hajmi Foizda
1.	O'zbekiston Respublikasi	262	4955	40451615,7	100
2.	Qoraqalpog'iston Respublikasi	15	350	233542,2	0,6
	Hududlar				
3.	Andijon	5	157	10459118,4	25,8
4.	Buxoro	12	250	1335335,2	3,3
5.	Jizzax	4	279	162448,6	0,4
6.	Qashqadaryo	6	530	2025557,5	5,0
7.	Navoiy	7	460	2477490,6	6,1
8.	Namangan	3	159	201022,0	0,5
9.	Samarqand	13	162	2052916,9	5,1
10.	Surxondaryo	7	224	362408,1	0,9
11.	Sirdaryo	4	172	405570,8	1,0
12.	Toshkent	16	530	1667612,5	4,1
13.	Farg'ona	6	319	592676,6	1,5
14.	Xorazm	10	320	755723,5	1,9
15.	Toshkent shahri	154	1043	17720192,8	43,8

*2022 yildan innovatsion ishlarni amalga oshirgan fermer xo'jaliklarini qo'shgan holda

Innovatsion mahsulot ishlab chiqaruvchi korxona va tashkilotlarning har biriga to'g'ri keladigan innovatsion mahsulot miqdori ham korxona va tashkilotlarning hududlar kesimida innovatsion mahsulot ishlab chiqarishning o'rtacha unumdorligini beradi. Bu ko'rsatgichlar orqali hududlar kesimida har bir innovatsion mahsulot ishlab chiqaruvchi korxona va tashkilotga to'g'ri keladigan innovatsion mahsulot ko'rsatgichi bo'yicha innovatsion mahsulot ishlab chiqarish unumdorligini, yoki samaradorligini tahlil qilish mumkin, (1-jadvalning 5-ustunini 4-ustunga bo'lgandagi natija, 2-jadvalning 3-ustunida keltirilgan).

Respublika bo'yicha bu ko'rsatgich, yani korxona va tashkilotlarning innovatsion mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha o'rtacha unumdorligi 8163,8 mln.so'mga teng. Hududlar kesimida eng yuqori unumdorlik Andijon hududiga 66618,6 mln. so'm.

¹ Stat.uz – sayt ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

(Andijon viloyatida innovatsiyalarni yaratishda “Shevrolet” avtomobil kompaniyasi korxonalari muhim o‘rin tutadi) va Toshkent shahriga 16989,6 mln.so‘m to‘g‘ri keladi. Keyingi o‘rinda, Samarqand hududi (12672,3 mln.so‘m), qolgan hududlarning unumdorligi respublika ko‘rsatgichidan past. Eng past unumdorlikni Surxandaryo (1617,9 mln.so‘m), Namangan (1264 mln.so‘m), Jizzax (582,3 mln.so‘m) hududlarida va Qoraqalpog‘iston Respublikasida (667,3 mln.so‘m) kuzatish muumkin.

Hududlar kesimida ilmiy-tadqiqot ishlarini, ishlanmalarni bajaruvchi tashkilotlarning o‘rtacha unumdorlik indeksleri va innovatsion maxsulot ishlab chiqaruvchi korxona va tashkilotlarning unumdorlik indeksleri 3-jadvaldagi 2 va 3-ustunlaridagi barcha ko‘rsatgichlarni o‘rtacha respublika ko‘rsatgichiga bo‘lish orqali aniqlangan. Respublika bo‘yicha bu indeksleri 1,0 ga teng.

Ilmiy-tadqiqot ishlarini, ishlanmalarni bajaruvchi tashkilotlarning eng yuqori indeksi Andijon (6,8; bu hududda ilmiy-tadqiqot ishlarni, ishlanmalarni innovatsion maxsulot ishlab chiqarishga transformatsiya bo‘lishi, o‘rtacha respublikanikidan 6,8 barobarga ko‘p), Navoiy (2,3), Qashqadaryo (2,2) va Samarqand (1,0) hududlariga to‘g‘ri keladi. Qolgan hududlarni indeksi respublika indeksidan past. Eng past indeksni Xorazm (0,5), Surxandaryo (0,3) va Jizzax (0,3) hududlarida kuzatamiz.

Innovatsion mahsulot ishlab chiqaruvchi korxona va tashkilotlarning unumdorligi indeksi ham Andijonda eng yuqori (8,2; bu hududda innovatsion maxsulot ishlab chiqaruvchi korxona va tashkilotlarning o‘rtacha unumdorligi, respublikanikidan 8,2 barobar ko‘p degani). Keyingi yuqori indeks Toshkent shahriga (2,1) va Samarqand hududiga (1,6) to‘g‘ri keladi. Qolgan hududlarning indeksi o‘rtacha respublika indeksidan past. Eng past indeks Namangan, Surxandaryo, Farg‘ona va Jizzax hududlariga (0,2) va Qoraqalpog‘iston Respublikasiga (0,1) to‘g‘ri keladi.

Hududlarni innovatsion mahsulot ishlab chiqarish salohiyatini ifodalovchi integral indeks 4 va 5 ustunlarda keltirilgan indekslar yig‘indisi bilan aniqlanadi, 2-jadval. Integral indeks hududlar kesimida ilmiy-tadqiqot ishlarni, ishlanmalarni innovatsion maxsulotga transformatsiya bo‘lishini plyus innovatsion mahsulot ishlab chiqaruvchi korxona va tashkilotlarning innovatsion mahsulot ishlab chiqarish unumdorligini ifodalaydi.

2-jadval

Hududlarning innovatsion mahsulot ishlab chiqarish salohiyatini ifodalovchi integral ko‘rsatkichlar²

Hududlar	Har bir ilmiy-tadqiqot ishlarini, ishlanmalarni bajaruvchi tashkilotga to‘g‘ri keladigan innovatsion maxsulot,	Har bir innovatsion maxsulot ishlab chiqaruvchi korxona va tashkilotga to‘g‘ri keladigan innovatsion maxsulot,	Ilmiy-tadqiqot ishlarini, ishlanmalarni bajaruvchi tashkilotlarning o‘rtacha unumdorligi indeksi	Innovatsion maxsulot ishlab chiqaruvchi korxona va tashkilotlarning unumdorligi indeksi	Hududlarning innovatsion mahsulot ishlab chiqarish salohiyatini ifodalovchi integral indeks (4 va 5 ustunlar yig‘indisi)
----------	--	--	--	---	--

² Stat.uz – sayt ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

	mln. so'm	mln. so'm			
O'zbekiston Respublikasi	154395,5	8163,8	1,0	1,0	2,0
Qoraqalpog'iston Respublikasi	15569,5	667,3	0,1	0,1	0,2
Hududlar					
Andijon	1045911,8	66618,6	6,8	8,2	15,0
Buxoro	111277,9	5341,3	0,7	0,7	1,4
Jizzax	40612,2	582,3	0,3	0,1	0,4
Qashqadaryo	337592,9	3821,8	2,2	0,5	2,7
Navoiy	353927,2	5385,8	2,3	0,7	3,0
Namangan	67007,3	1264,3	0,4	0,2	0,6
Samarqand	157916,7	12672,3	1,0	1,6	2,6
Surxondaryo	51772,6	1617,9	0,3	0,2	0,5
Sirdaryo	101392,7	2358,0	0,6	0,3	0,9
Toshkent	104225,8	3146,4	0,7	0,4	1,1
Farg'ona	98779,4	1857,9	0,6	0,2	0,8
Xorazm	75572,4	2361,6	0,5	0,3	0,8
Toshkent shahri	115066,2	16989,6	0,7	2,1	2,8

* 2-jadval ma'lumotlari 1-jadval ma'lumotlari asosida aniqlangan.

Qaysi hududda integral indeks yuqori bo'lsa, hududning innovatsion salohiyati yuqori deb aytish mumkin va shu hududda innovatsion maxsulot ishlab chiqarish yuqori bo'ladi. Jadvaldan ko'rish mumkinki, Andijon hududining innovatsion salohiyati juda yuqori (15,0), bu hududda ilmiy-tadqiqot ishlari, ishlanmalarning unumdorligi ham va innovatsion maxsulot ishlab chiqaruvchi korxona va tashkilotlarning unumdorligi ham yuqori.

Keyingi o'rinlarda Navoiy hududi (3,0), Toshkent shahri (2,8), Qashqadaryo (2,7) va Samarqand (2,6) hududlari hisoblanadi. Bu hududlarning integral indeksi respublika indeksidan (2,0) yuqori bo'lsa, qolgan hududlarniki past. Eng past integral indeksiga ega hududlarga Surxondaryo (0,5), Jizzax (0,4) hududlarini va Qoraqalpog'iston Respublikasini (0,2) kiritish mumkin. Umumlashtirib aytadigan bo'lsak, hududlarning innovatsion salohiyati hududda ilmiy-tadqiqot ishlarni, ishlanmalarni bajaruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladigan innovatsion maxsulot hajmi va shu ilmiy-tadqiqot ishlarni va ishlanmalarni innovatsion maxsulotga aylantiruvchi korxona va tashkilotlarga to'g'ri keladigan innovatsion maxsulot miqdori bilan belgilanadi.

Hududlarning innovatsion infratuzilma elementlari 3-jadvalda keltirilgan. Mamlakatimizda 2023 yilda jami 219 ta OTM lari, shundan 42 tasi nodavlat va xorijiy oliy ta'lim tashkilotlari 23 ta texnoparklar faoliyat yuritgan. Bulardan tashqari, 2022 yilda 262 ta tashkilotlar ilmiy-tadqiqot ishlarini bajargan. Texnoparklar tarkibida 2023 yilda 1694 ta korxona faoliyat yuritgan. Barcha moliyalashtirish manba'laridan texnoparklarni moliyalashtirish 681,0 mlrd. so'mni tashkil etgan. Texnopark tarkibiga kiruvchi korxonalarning foydasi, foyda solig'ini tulagunga qadar, 3876,9 mlrd. so'mga teng bo'lgan, eksporti esa yuklab jo'natilgan sanoat maxsuloti 153,8 mlrd. so'mni tashkil etgan. Mamlakatimizda innovatsion infratuzilma elementlari shakllanayotgan bir sharoitda bu

ko'rsatkichlarni past deb bo'lmaydi. O'zbekistonda innovatsion salohiyatni oshirish imkoniyatlari katta.

3-jadval

Hududni innovatsion infratuzilma ko'rsatkichlari³

№	Hududlar	Innovatsion infratuzilma va indeks ko'rsatkichlari				
		Oliy ta'lim muassalari	Nodavlat va xorijiy oliy ta'lim tashkilotlari soni	Texnoparklar soni	Hududlar ni innovatsion mahsulot ishlab chiqarish salohiyati integral indeksi	Umumiy integral indeks (3; 4; 5; 6 ustunlar yig'indisi)
1.	2	3	4	5	6	7
1	O'zbekiston Respublikasi	219	42	23	2	286
2.	Qoraqalpog'iston Respublikasi	12	-	1	0,2	13,2
	Viloyatlar					
3.	Andijon	11	1	1	15,0	28,0
4.	Buxoro	11	5	2	1,4	19,4
5.	Jizzax	5	1	1	0,4	7,4
6.	Qashqadaryo	11	3	1	2,7	17,7
7.	Navoiy	5	2	1	3,0	11,0
8.	Namangan	9	1	1	0,6	11,6
9.	Samarqand	15	1	1	2,6	19,6
10.	Surxondaryo	8	-	1	0,5	9,5
11.	Sirdaryo	3	-	1	0,4	4,4
12.	Toshkent viloyati	13	1	2	1,1	17,1
13.	Farg'ona	13	2	1	0,8	16,8
14.	Xorazm	8	2	6	0,8	16,8
15.	Toshkent shahri	95	23	3	2,8	123,8

Toshkent shaxri eng yuqori innovatsion infratuzilma ko'rsatkichlariga ega: OTM larining 95 tasi, yani 43,4 % i, nodavlat va xorijiy oliy ta'lim tashkilotlarining 23 tasi, yani 53,5 % i, texnoparklarning 3 tasi va ilmiy-tadqiqot ishlarini bajargan tashkilotlarning 154 tasi, foizda 58,8 % i Toshkent shahrida joylashgan. Keyingi o'rinlarda Toshkent viloyati, innovatsion infratuzilma ko'rsatkichlari mos holda 13; 1; 16; 2; Buxoro 11; 5; 12; 2; Samarqand 15; 1; 13; 1. viloyatlari hisoblanadi.

³ Stat.uz – sayt ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Eng past ko'rsatkichlarni Suxondaryo 8; 7; 1. Sirdaryo 3; 4; 1. va Namangan 9; 1; 3; 1. viloyatlarida ko'ramiz. Qolgan viloyatlarda bu ko'rsatkichlar o'rta darajada deb qarash mumkin. Innovatsion infratuzilma ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan hududlar, ayniqsa Toshkent shaxri kichik biznes korxonalarining innovatsion rivojlanish imkoniyatlari yuqori.

Innovatsion infratuzilma elementlari eng yaxshi rivojlangan hududlarga Toshkent shahrini, Toshkent va Navoiy viloyatlarini kiritish mumkin.

5. Xulosa va takliflar

Kichik biznes korxonasining innovatsion salohiyatini nafaqat korxonaning innovatsion salohiyati, balki korxona joylashgan hududda mavjud bo'lgan innovatsion infratuzilmaning rivojlanganlik darajasi, ilmiy-tadqiqot ishlarini va ishlanmalarni bajaruvchi tashkilotlar soni ham belgilaydi: biznes inkubator, texnopark, ilmiy tashkilotlar, universitetlar, texnologiya transferi, davlatning qo'llab-quvvatlashi va hokazo. Kichik biznes yuqorida aytib o'tilgan innovatsion infratuzilma elementlari bilan hamkorlikda ishlasa, uning innovatsion salohiyati yanada ortadi.

Hududlar kesimida ilmiy-tadqiqot ishlarini, ishlanmalarni bajaruvchi tashkilotlarning va innovatsion maxsulot ishlab chiqaruvchi korxona va tashkilotlarning innovatsion maxsulot ishlab chiqarish bo'yicha unumdorliklarining integral indeksi bilan hududlarning innovatsion infratuzilma elementlari yig'indisi sifatida umumiy integral indeks ko'rsatkichlari hududlar kesimida aniqlangan va ular hududlarda joylashgan KO'B korxonalarining innovatsion salohiyatini ifodalaydi. Respublika bo'yicha bu indekslar 1,0 ga teng.

Hududlarning umumiy integral indeksiga qarab qaysi hududlarda kichik biznes korxonalarida innovatsion faoliyatni yo'lga qo'yish afzal ekanligini ko'rish mumkin. Toshkent shahrida umumiy integral ko'rsatkich eng yuqori. Toshkent shahrida innovatsion infratuzilma elementlarini kuchaytirish orqali kichik biznes korxonalariga davlat tomonidan ustuvor sohalar bo'yicha aniq innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqarish buyurtmalarini berish mumkin va innovatsion mahsulot ishlab chiqaruvchilarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash orqali ularning innovatsion faolligini oshirish mumkin bo'ladi.

Xuddi shunday ishlarni Andijon, Samarqand, Buxoro Qashqadaryo va Toshkent viloyatlarida ham amalga oshirish mumkin. Sanoatlashgan Navoiy viloyatida innovatsion infratuzilma elementlarini rivojlantirish maqsadga muvofiq. Eng asosiy muammo innovatsion faoliyat bilan shug'ullanish uchun yetarli darajada intellektual potensialga ega bo'lgan kadrlarni yetishmasligi.

Yuqori integral indeksga ega hududlarda yuqori texnologik innovatsiyalarni imitatsion innovatsiyalardan foydalanish orqali yaratishni rivojlantirish maqsadga muvofiq. Shu o'rinda Toshkentdagi texnik ilmiy-tadqiqot tashkilotlariga, rivojlangan davlatlarda shu soha bo'yicha ishlab nafaqaga chiqqan yirik mutaxassislarni jalb qilish innovatsiya sohasida yaxshi natijalarga erishish imkoniyatini beradi.

6. Foydalanilgan adabiyotlar

1. Gafurov U.V. Innovatsion g'oyalarni amaliyotga joriy etishda kichik biznes ishtrokini faallashtirish // Iqtisod va moliya. - Toshkent, 2012. - № 2, - b. 17-23.

2. Barkovskaya V.E. Metodologicheskie aspekty otsenki innovatsionnoy deyatel'nosti mal'yx predpriyatiy v naukogradax / V.E. Barkovskaya // Vestnik Astraxanskogo gosudarstvennogo tekhnicheskogo universiteta. Seriya: Ekonomika. -2020. - №3. -S. 27-40.
3. Zokirov A.I. Otsenka innovatsionnogo potentsiala rossiyskoy promyshlennosti / A.I. Zokirov, M.V. Vladyka // ekonomicheskie i gumanitarnye nauki. -2018. -T. 323. - №12. -S 12-17.
4. Otajonov Sh.I. O'zbekistonda kichk biznes sub'ektlarining innovatsion faoliyati boshqaruv mexanizmini takomillashtirish.: Iqtisod fanlari nomzodi. ... diss. Avtoref. – T.: 2010. – 27 b.
5. O'zbekiston respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati, T.2022 y.
6. O'zbekiston respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati, T. 2024 y.

Copyright: © 2026 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

